



Vatan yagonadir,
Vatan bittadir!



N: 42 (67311)
2020-yil 19-oktyabr

Tong yulduzi

www.tongyulduzi.uz

Gazeta 1929-yil 1-avgustdan chiqarib boshlagan

O'zbekiston Respublikasi bolalar va o'smirlar gazetasi

ISSN-2010-6092



21-OKTYABR – «DAVLAT TILI HAQIDA»GI QONUN QABUL QILINGAN KUN



Poytaxtimizning Shayxontohur tumanidagi 59-Davlat
ixtisoslashtirilgan umumta'lim maktabining 4-«A» sinf
rahbari Muattar Ibrohimxonova dars mashg'ulotida.

Nashr
ko'rsatkichi
198

2021-yil uchun

«Tong yulduzi»ga obuna boshlandi!



Manzilimiz: Toshkent shahri,
Navoiy ko'chasi, 30-uy.

Indeks: 100 011.

Tel./faks: (0-371) 244-63-08

www.tongyulduzi.uz,

tongyulduzi1929@umail.uz

Telegram: t.me/tongyulduz





VATAN TILI – OTAM TILI, ONA TILIM!

Inson umrini, bir soʻz bilan aytganda, kecha, bugun va erta tashkil etadi. Bugungi kunning nurafshonligi kechagi kundan olingan saboq va xulosalar evaziga ekanligiga hech kim shubha qilmasa kerak. Va qolaversa, ertangi kunimizning yanada yorqinligini taʼminlashimiz uchun barchamiz bugundan saboq olmogʻimiz lozim!

Darhaqiqat, millatning, xalqning oʻtmish-u ertasi ham aynan mana shu tamoyillarga asoslansa, ne ajab?!

Bu aziz Vatan barchamizniki! Shiorimizga aylanib ketgan bu soʻzlarni har birimiz ong-u shuurimizda oʻzimizga xos tarzda talqin etamiz. Har birimiz Vatan kalomiga oʻziga xos mehr ila yondashamiz. Oʻz onamizga muhabbat-u eʼzozimiz qanday boʻlsa, oʻz Vatanimizga ham mehrimiz undan aslo kam emas! Qolaversa, yod olgan sheʼrlarimizda, kuylagan qoʻshiqlarimizda ham ona va Vatan soʻzlari hamisha yonma-yon.

Bu tuproq dunyo tamadduni uchun ne-ne alomatlarni yetkazib bermadi, deysiz?! Qaysi bir sohaga yuz burmang, buyuk ajdodlarimizning zarhal harflar ila bitilgan nomlariga koʻzingiz tushadi. Tibbiyot deysizmi, ilmi nujum deysizmi yoinki aniq fanlarmi?... Xullas, mana shunday dongdor tarix egalari bugungi kunda!

Muhtaram Yurtboshimiz bot-bot taʼkidlab turganlari singari biz ayni pallalarda 3-renessans davrini boshlayotirmiz. Bu oʻz-oʻzidan boʻlmaydi, albatta.

Demak, mana shunday ulugʻvor maqsadlar bilan barchamizni old saflarga chorlayotgan Davlatimiz rahbarining har bir daʼvatiga labbay, deb javob bera oladigan, oʻzining hech kimdan kam emasligini chuqur his qilib, yorugʻ manzillarni koʻzlayotgan vatanparvarlar – yoshlar, qalbi uygʻoq oʻspirinlar davrasi kengaymogʻi shart! Zero, buyuk evrilishlar uygʻoq koʻngillarda koʻz ochadi!

Nasib etsa, oʻzbek tilimizga davlat tili maqomi berilganiga ham oz emas, koʻp emas 31 yil toʻlmoqda. Va juda katta iftixor bilan aytishimiz kerakki, joriy yildan boshlab 21-oktyabr – Oʻzbek tili bayrami kuni sifatida keng nishonlanishi belgilangan.

Til bayrami oldidan «Tong yulduzi» gazetasining aziz oʻquvchilari boʻlgan uka-singillarimga, jigarbandlarimga cheksiz izzat ila mehrimni izhor etaman! Koʻngillarimizdagi milliy iftixorni yanada joʻsh urdiradigan Oʻzbek tili bayrami barchangizga muborak boʻlsin! «Mana shu tilga, mana shu elga mansubman!» degan yurak tugʻyonlariga quloq tutsak, «mansubman» soʻzi «munosibman» kalimasiga yaqin tarzda jaranglaydi. Ilohim, shunday boʻlsin! Dunyolarga dars bergan mislsiz allomalarni yetishtirgan mana shu elga, mana shu tilga, shu zamin, shu tuproqqa mansub va munosib boʻlaylik, aziz yoshlar!

Bugun aksariyatimiz biror maʼlumotga ega boʻlishni istasak, darhol ijtimoiy tarmoqlarga yuzlanamiz. Uyali aloqa tizimlari orqali doʻst-u birodarlarimiz bilan xabarlashamiz, suhbat quramiz. Ammo ushbu jarayonlarda bizning asosiy «ish qurolimiz» bu – Ona tilimiz hisoblanadi. Yuqorida aytib oʻtganimizdek, til faqatgina muloqot qilish vositasi emas, balki choʻng gʻururimiz, yuksak iftixorimiz belgisi ekanligi, undan muhabbat bilan va savodxon tarzda foydalanishimiz zarurligini aytib oʻtmoqchiman. Bu gaplarim kimlar uchundir biroz havoyi gapday tuyular, ammo shu millatning yutuqlaridan koʻngli oʻsadiganlar va milliy qusurlardan yuragi ogʻriydiganlar uchun oʻta muhim Soʻzdir!

Baʼzi-baʼzida qoʻl telefonimga kelib tushgan xabarlarini oʻqiy turib, dilim ranjiydi. Almoyi-jalmoyi jumlar, soʻzlarning talaffuzdagi variantidan ham battar holati, hech bir kurakda turmas soʻz qisqartmalari, buyam yetmaganday, alifbomizda yoʻq harflarning nooʻrin qoʻllanilishi...

Aytaman, desang gap koʻp. Aslini olganda, vatanparvarlikni birovga uqtirish orqali oʻrganib boʻlmaydi. Inson Vatanga muhabbat bilan tugʻiladi! U yurtga mehrni onaning oq sutidan, tungi allalaridan, otaning bu yoʻldagi shijoatidan oladi, mening nazarimda.

Shunday ekan, men istardimki, «Tong yulduzi»

gazetasining barcha muxlislari – oʻta savodxon! Oʻz Ona tiliga, oʻz Ona yurtiga mehri oʻzgacha! Ular qalblaridagi mehrni allaqachon hurmat va ehtiromga aylantirishgan!

Barchamizga eng ulugʻ bayramlarimizdan boʻlgan Oʻzbek tili kuni muborak boʻlsin!

AVLODLARGA SOʻZ TASHUVCHI DASTYORMAN!

Men bulbulman – oʻz tilida sayrab turgan,
Men duldulman – oʻz yerida yayrab yurgan.
Menga kelsin, mening oʻzbek tilim uchun –
Oʻzin dagʻal tillarini qayrab yurgan.


Qani aytsin, qaysi tildan kamdir tilim,
Mening uchun iftixor ham shaʼndir tilim.
Temuriyman – turkiylarning bosh boʻgʻini,
Senda olam fasohati jamdir tilim!

Sen oʻzingsan alla bilan dilga tushgan,
Va ilk bora «ona» deya tilga tushgan.
Qoshgʻariydan tortib barcha bobolarim –
Menga faqat til hikmatin oʻrgatishgan.

Shu til borki, shu el borki – men ham borman,
Tilin aziz bilganlarga doʻstman, yorman.
Qoʻlga qalam tutdim, demak, ajdodlardan –
Avlodlarga soʻz tashuvchi dastyorman!

Madhing qilsam, koʻksim aro yonar dilim,
Kuylagayman, mayli toki qonar tilim.
Yashasam bas, sen-la seni senda kuylab,
Vatan tili, Otam tili, Ona tilim!

Orif TOʻXTASH,
Oʻzbekiston Yozuvchilar uyushmasi aʼzosi,
shoir, jurnalist



NAFIS VA MUSIQA OHANGIDEK JOZIBADOR

Farzand tarbiyasida onaning oʻrni beqiyos boʻlganidek, insonning hayotda oʻz oʻrnini topishida, kamolotga erishuvda tilning oʻrni shunchalik muhim. Shu bois, tilni onaga qiyoslab, ona tili, deb ataydilar. Til inson vujudida qon-qoniga singib «oqadi».

Oʻzbekiston Respublikasining davlat tili oʻzbek tilidir. Konstitutsiyamizda oʻzbek tili maqomi huquqiy jihatdan mustahkamlab qoʻyilgan. Quvonarlisi, bugun chet ellarda ham oʻzbek tiliga qiziqayotganlar, uni oʻrganuvchilar soni ortib bormoqda. Dunyoda 5600 dan ortiq tillar mavjud boʻlib, bundan 200 tasigina davlat tili sifatida qabul qilingan. Ularning orasida oʻzbek tilining ham borligi uning naqadar sofligi, mukammalligi, purmaʼno va

jozibadorligidan darak beradi. Yaqinda rossiyalik tilshunos olim, professor A. M. Kozlyaninaning «Oʻzbek tili nafis va musiqa ohangidek jozibador», degan taʼriflarini oʻqib qoldim. Shunday ekan, ona tilimizni sofligicha kelajak avlodlarga yetkazish barchamizning vazifamizdir. Negaki, ona tilini ulugʻlash, asrab-avaylash oʻsha tilda soʻzlashuvchi har bir insonning burchidir.

Shunday ekan, oʻzga tillarni sira kamsitmagan holda, ona tilimizni eʼzozlashimiz, mukammal bilishimiz kerak.

Husan HAKIMOV,
Buxoro viloyati, Kogon shahridagi
4-umumtaʼlim maktabi oʻquvchisi

NEGA 100 BALL OLOLMADIM?

Yodimda bor, Buxoro davlat universiteti pedagogika fakultetining 4 bosqichi talabasiman. Dekabr oyida maktablarga amaliyot o'tash uchun chiqqan edik. Darslarni kuzatardik, amaliyot rahbarimiz Ulug'murod Amonov domla har birimizga dars o'tish uchun mavzu va topshiriq berardilar.

Har kuni bir-birimizning dars jarayonlarimizni kuzatardik. Dars o'tish navbati menga keldi. 2-sinf-larda o'qish darsini o'tish uchun bir hafta tinimsiz tayyorlandim. Ko'rgazmali qurollar yasadim. Darslarni qiziqarli o'tish uchun o'ziga xos usullar tanladim. Dars o'tyapman-u, onda-sonda ustozimga qarab qo'yaman. Rahbarimiz diqqat bilan kuzatib o'tirardi. Undagi sinchkovlikni ko'rib, yanayam ruhlanib ketardim. Dars tugagach, kursdoshlarim qarsak chalib yuborishdi. Hammamiz yig'ilib, tahlil qilish uchun bizga ajratilgan xonaga kirdik.



Bir kuni darsda...

Kursdoshlarim tinmay: «Zo'r o'tding, hayajonlanmading ham», deb, meni olqishlashardi. Yakuniy xulosani ustoz aytdilar. Ular ko'proq yutuqlarim haqida gapirdilar. Ammo negadir 100 ballik sistemada 75 ball qo'ydilar. Kursdoshlarim ajablanib, ustoz, dars juda chiroyli o'tildi deyapsiz, nega 75 ball qo'ydingiz, deb so'rashdi. Shunda ustoz: «Maqsudaning bu darsini A. Qodiriyning «O'tkan kunlar» romaniga o'xshatdim. Dars juda zo'r bo'ldi. Lekin tanaffus paytida ham darsini davom ettirishini asardagi Kumush vafot etgan sahnasiga o'xshatdim», dedilar. Ustozim garchi darsim boshqa mavzuda bo'lsa-da, uni «O'tkan kunlar» romanini o'qiganday tomosha qilibdilar. Ammo o'quvchilarni o'z vaqtida tanaffusga chiqarmaganim, ularni toliqtirib qo'yganim uchun yuqori ball qo'ymabdilar... Shu-shu jismoniy tarbiya darslarimda o'quvchilarning keyingi darsga kech qolmasliklari uchun ertaroq tugataman. Amaliyot paytida dars o'tishning sir-asrorlarini mehr bilan mukammal o'rgatgan Ulug'murod ustozimizdan cheksiz minnatdorman. Hozirgacha ustoz saboqlaridan samarali foydalanmoqdaman.

Maqsuda QAYUMOVA,
poytaxtimizning Shayxontohur tumanidagi
157-umumta'lim maktabining jismoniy tarbiya
fani o'qituvchisi, Xalq ta'limi a'lochisi

Lesson 42

Ingliz tilini o'rganamiz! Let's learn English!



SCHOOL

Write three words in each category

- 3 things in your schoolbag:
- 3 subjects:
- 3 book:
- 3 things in the classroom:
- 3 things you do during recess:
- 3 ball games:
- 3 things in the gym:
- 3 things you wear to school:
- 3 holidays:
- 3 languages you can learn:
- 3 foods for lunch:
- 3 traditions:
- 3 rules at school:
- 3 «classrooms»:



HOUSE AND HOME

I. VOCABULARY

1. Living room – mehmonxona
2. Bathroom – yuvinish xonasi
3. Dining room – oshxona
4. Kitchen – oshxona
5. Yard – hovli
6. Garden – bog'
7. Bath – yuvinish xonas
9. Garage – garaj
11. Pantry – omborxona
12. Laundry – kir yuvish xonasi



II. ANSWERS THE QUESTIONS USING THE NEW WORDS

1. Where do you usually cook meals?
2. Where do you usually wash clothes?
3. Where do you usually hang your clothes?
4. Where do you usually get washed?
5. Where do you usually grow flowers?
6. Where do you usually it dinner?
7. Where do you usually sit in the sofa and watch TV?
8. Where do you usually park the car?
9. Where do you usually store food drinks and other things?
10. Where do you usually sleep?

Zilola SIROJIDDINOVA,
the teacher of school № 41 in Angren city, Tashkent region

KELING, DIKTANT YOZAMIZ

Kollejda o'qituvchilik qilgan davrimda boshlang'ich nazorat ishida o'quvchilarga test o'rniga kichik matnli diktant yozdirish odatim bor edi.



O'zbek tili fidoyisi, O'zbekiston milliy universiteti professori, «Shuhrat» medali sohibi Yormat TOJIYEV

Nimadir sabab bo'ldi-yu, boshqa guruhning o'qituvchisi darsga kelolmay qoldi. U guruhdan ham nazorat ishi olishni menga topshirishdi. Hamma o'quvchilarning ishini baholab, ustoziga topshirdim. Oradan bir-ikki kun o'tgach, direktor meni xonasiga chaqirdi. O'quvchilar norozi bo'lishdi, o'zimizning ustozimiz diktant olsalar, yaxshi, a'lo baho olardik, boshqa ustoz bizga past baho qo'yibdi, deyishdi. Ulardan yana bir bor diktant oling, natijalarini menga olib kirasiz, deya vaziyatni tushuntirdi. Qayta diktant yozdirdim, natija o'sha-o'sha – yuqori baholar yo'q. Shunda rahbarimiz, siz to'g'ri baholabsiz. O'sha guruh o'qituvchisi yozdirgan diktantni ham tekshirdim, siz xato topgan so'zlarni u to'g'ri deb baholabdi. Rahmat sizga, darsingizga boravering. U ustoz bilan o'zim gaplashaman, degandi...

Oradan ancha yillar o'tib, otam – o'zbek tili fidoyisi, O'zbekiston milliy universiteti professori, «Shuhrat» medali sohibi Yormat Tojiyevning tavallud ayyomi arafasida uning sevimli va qadrdon shogirdlaridan biri Shahobiddin Odilov qiziq bir voqeani so'zlab bergandi.

...O'zbek tilini, uning so'z boyligini, so'zlarning ma'nosi, tovushlarini qachon, qay tarzda sevib qolganimni bilmayman. Vaholanki, ona tilining haqiqiy shaydosi bo'lish, uning muammolariga befarq bo'lmaslik, og'riqli nuqtalarni qalb dardiga aylantirish har kimning ham qo'ldan kelavermaydi. Mening baxtim shundaki, talabalik davrimda asrimizning eng buyuk, eng fidoyi tilshunos olimlaridan saboq oldim. Ular bilan hamsuhbat bo'ldim. Ilk talabalik kunlarimizda qotmagina, qorachadan kelgan bir o'qituvchi darsimizga kirdi. O'zlarini Yormat aka, deb tanishtirgan ustoz bizga ikki varaqdan oq qog'oz tarqatib chiqdilar va: «Hozir diktant yozamiz», dedilar. Biz ustozning topshirig'ini tushunmadik. «Nima dedingiz, ustoz, insho yoki bayon demoqchimisiz?» dedik ustoz adashib ketdi chog'i, deb o'ylab. «Insholarni yozib, «5» baholar olib, o'qishga kirib bo'ldingiz. Endi darsni boshlaymiz. Bugungi birinchi darsimizda diktant yozasizlar», dedilar. Ochig'i, ustozning bu gaplariga ich-ichimizdan kulgandek ham bo'ldik. To'g'ri-da, kimsan «talaba» degan nomimiz bor axir!.. Shu tarzda diktant yozishga kirishdik. Ustoz allaqaysi gazetadan kichikkina

bir xabarni o'qib berdilar, biz uni diktant qilib yozdik. Keyingi darsda baholar e'lon qilinganda, uyatdan yerga kirib ketgudek bo'ldik...

Bu ikki voqea o'rtasida qandaydir bog'liqlik bordek edi. Zero, ota ham, farzand ham savodxonlik bobida bir xil talab qo'ygandi.

Darhaqiqat, otamni o'z sohasining yetakchi mutaxassisi, ko'plab shogirdlarning mehrini qozongan ustoz, murabbiysi deyishadi. Men esa otamni mehribon, talabchan oila boshlig'i, farzandlari, nevaralari, chevaralarining ilmi, ma'rifatli bo'lishi uchun doimo jon kuydiradigan inson deb bilaman. Abdulla Qahhor ta'biri bilan aytganda, so'z tuzishda va uni ifodalashda uzoq andisha qiladigan, mulohazali, gaplashsangiz, nimadir oladigan, yana gaplashgengiz kelaveradigan, barchaga o'rnak inson sifatida qadrlayman. Ustoz o'zbek tilining izohli lug'atidagi har bir so'zning ma'nosini, vazifasini, qo'llanish o'rnini mukammal biladi. O'zbek tilining ravnaqi, sofliqi, ifoda vositalarining rang-barangligi bilan hayratlanadigan inson. U o'zbek tili va adabiyotining darg'alari Ayub G'ulomov, Ozod Sharafuddinovdek buyuk insonlarning nazariga tushdi, ustoz-shogird bo'ldi, yetuk olim bo'la oldi. Sevimli adabiyotshunos olimimiz Omonilla Madayevning qadrdon do'sti.

«O'zbek nutqi madaniyati va uslubi asoslari» darsligini yaratishda hammualliflik qildi. Rusiyazon talabalar uchun «O'zbek tili darsligi»ni tuzdi (15 bosma taboq), 5 ta monografiya, 10 dan ortiq turli o'quv qo'llanmalar yaratdi. U ko'plab namunaviy dasturlar muallifidir. Respublikaning turli jurnallari va gazetalarida, anjumanlar to'plamlarida, tilshunoslikning dolzarb muammolariga bag'ishlangan ilmiy to'plamlarda 100 dan ziyod ilmiy, ilmiy-ommabop maqolalar yozdi. Albatta, bular hali olim ilmiy-pedagogik faoliyatining hammasi emas. Chunki uning turli mavzularda yozgan maqolalari, ta'lim-tarbiya muammolariga bag'ishlangan ishlari, televideniyedagi, radiodagi chiqishlari, turli anjumanlar sho'balaridagi rahbarliklari, dissertatsiyalar, diplom ishlariga rahbarlik qilganligi kabi hali ko'plab jihatlari borki, bular ham, albatta, olimning universitetdagi 53 yillik faoliyatini to'la qamrab ololmaydi.

Hozirgi kunda Respublikamizdagi yetakchi tilshunos va adabiyotshunos olimlar qatoridan munosib o'rin egallagan o'nlab fan doktorlari, professorlar, jumladan, Nizomiddin Mahmudov, Ravshanxo'ja Rasulov, Hamidulla Boltaboyev, Bahodir Karimov, Nurboy Jabborov, Mamatqul Jo'rayev, Saodat Muhammedova, Muhabbat Qurbonova, Tolibjon Enazarov, Zulxumor Xolmonova, Durdona Lutfullayeva, Aftonqul Erkinov, Ra'noxon Ibragimova, Zilola Xudoyberganova va boshqalar, yigirmadan ziyod fan nomzodlari, dotsentlar, Respublikadagi mas'ul lavozimlarda ishlayotgan Bobur Alimov, Shuhrat Rizayev, Rahmon Qo'chqorov, Difuza Rahmatillayeva, Rustam Sharipov kabi rahbar-olimlar hozirgi o'zbek filologiyasi fakulteti auditoriyalarida Yormat domladan tahsil olishgan. Ustozning eng sara maqolalari, do'stlari va hamkasblari, shogirdlari va davradoshlarining dil so'zlari jamlangan «Til ilmiga sadoqat» kitobida Yormat Tojiyevning ilmiy faoliyati va jamoat ishidagi faolligi, shaxsiyatining qirralari keng ochib berilgan.

O'zbekiston Milliy universitetining til va adabiyot kafedrasida o'z faoliyatini davom ettirayotgan sevimli, kamtarin va samimiy ustoz xonadonidan hali-hanuz shogirdlari qadami uzilmaydi.

Nodira NAZAROVA



BORLIG'INGGA JONIM FIDO

Qadim-qadim otmishning sayqalida turgan til, Navoiyning navosiga jozibalar bergan til, Borlig'ingga jonim fido hamma havas qilgan til, Sen erursan qadim o'tmish, o'zbek tilim!

Odamzodga qadrlisan, mo'tabarsan, suyuq sen, Ne-ne tillar ichra doim noming bilan qutlug' sen. Ko'hna tarix shodasidan jarang sochgan sado sen, Sen erursan buyukligim, o'zbek tilim, o'z tilim!

Tafakkurim mevasisan, bilimlarning dunyosisan, She'rlar yozib bitgan bo'lsam, sen ularning zebosisan. Tillar ichra nur taratgan ziyolarning ziyosisan, Sen erursan tafakkurim, o'zbek tilim, o'z tilim!

Mahliyo RAHIMBOYEVA,
Xorazm viloyati, Urganch davlat universiteti akademik litseyi ijtimoiy-gumanitar fanlar yo'nalishi 2-bosqich o'quvchisi



QADRING BALAND BO'LSIN!

Onam allasida sen yangragansan, Jon-u qulog'imga singib ketgansan. Hatto tomirimda jo'shib oqypasan, Eng sara hislarga guvohdir dilim, Qadring baland bo'lsin, ey ona tilim.

Qaylarga bormayin, ne yurt ko'rmayin, Mayli, men necha ming tilni bilmayin. Dardlari bedavo bir oshiqdayin, Senga talpinadi bu murg'ak ko'nglim, Qadring baland bo'lsin, ey ona tilim!

Navoiy sen sabab dunyoga mashhur, Fitrat-u Cho'lponlar xo'p mag'rur erur. Garchi Bobur Mirzo hind tilin bilur, Seni yodga olsa qalbi yig'lar jim, Qadring baland bo'lsin, ey ona tilim.

Bilaman, ertaga kuchli bo'lamiz, Qancha to'siq bo'lsa yengib o'tamiz. Biz seni dunyoga mashhur etamiz, Bu yo'lda bizlarga hamrohdir bilim, Qadring baland bo'lsin, ey ona tilim!

Shohsanam ABIRQULOVA,
Samarqand viloyati, Bulung'ur tumanidagi 27-umumta'lim maktabining 9-sinf o'quvchisi

«TIL – MILLAT KO‘ZGUSI» DEYMIZ-U LEKIN...

Minbarlardan hayqiramiz: «Tilni e'zozlash kerak. Yurakni olovga, jonni garovga qo'yib bo'lsa ham uni asrashimiz lozim. Qo'lni qo'lga beraylik, ona tilimizni asrab qolaylik!» Bu chaqiriqlarni kimlargadir yaxshi ko'rinish, notiqlik mahoratini «ko'z-ko'z»lash uchun aytayotgan insonlar o'z gaplariga o'zlari amal qilganlarida edi, hozirgi kunga kelib, dunyo miqyosida har oyda ikkitadan til «o'lik til» maqomini olmasdi.

Tengdoshlarimiz o'zaro suhbat qurayotganda ba'zan «Bay-bay», «Ok», «Davay», «Problema» kabi so'zlardan ko'p foydalanishadi. Ularga qarata: «Bu nima degan gap? Qachongacha ajdodlarimiz merosini oyoqosti qilamiz?» degim keladi. Milliylik tushunchasi tobora oqsab, o'z mavqeyini yo'qotib boryapti-ku.

Tilimizni yanada sayqal toptirib, boyitib borishimiz uchun nima yetishmayapti? Qonunmi? Yo'q, tilga oid qonunlarimizni jamlasak, kamida ikkita kitob chiqadi. Menimcha, bizga milliy g'urur, o'z ona tilimiz bilan faxrlanish tuyg'usi yetishmayapti.

Kichik yoshdagi bolakaylarning ulg'aygach erishgani bilasizmi nima? Buni quyidagi monolog orqali ifodalamoqchiman.

– Men chet tilini o'rgan-dim. Endi universitetga borib bemalol dars bersam bo'laveradi. Mo'maygina daromad topaman. Qo'shnimiz uyining tomi biznikidan ancha baland.

Ko'ramiz hali. Birinchi mao-shimdan uyimga o'nta usta tushirmasam, uyimiz tomini qo'shnimiznikidan bir metr baland qilib ko'tarmasam, Davronboy otimni boshqa qo'yaman!

Vijdonan ayting, bu bolakaylar ertaga kim bo'lib ulg'ayadi? Milliylikimiz kushandalari bo'lishmaydimi? Insoniylik tushunchasini yo'q qilishmaydimi?

Muqoyasa qilib aytadigan bo'lsam, Yurt-boshimizning mehnatlarini qadrlaylik. Tinch, osuda hayotimiz haqqi, buyuk ajdodlarimiz, ona tilimizni qadrlaylik!

**Muhayyo
SHOYIMOVA,
Buxoro viloyati,
Vobkent tumanidagi
20-umumta'lim
maktabining 9-sinf
o'quvchisi**



OLAM UZRA JARANG SOCHDING

Qoshg'ariyning «Devon»idan,
Yassaviy hikmat konidan,
Lutfiy lutfi-zabonidan,
Ungan tilim – ona tilim.

Navoiyning shoh baytida,
Boburning ajib xatida,
Mashrabning nola-dardida
Nursan, tilim – ona tilim.

O'tkan kunda Qodiriylar,
Kecha-kunduz Cho'lpon yig'lar,
Yulduzim der Fitrating, zar –
Dursan tilim – ona tilim.

Oybeginning ohlarisan,
G'afur G'ulom bog'larisan,
Mirtemir charog'larisan
Suygan tilim – ona tilim!

Abdullaning sirli sozi,
Erkin Vohidning dil rozi,
Muhammad she'rin pardozi,
Kuysan so'lim – ona tilim.

Olam uzra jarang sochding –
BMTda yangrab noming,
Yana yuksalur maqoming
Oydin yo'ling – ona tilim.

**Madina BAXSHILLOYEVA,
Buxoro viloyati, Romitan tumani 23-DIUM
ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi**

BUYUK ONA TILIMIZ – ABADIY IFTIXORIMIZ

Dunyodagi qadimiy va boy tillardan bo'lgan o'zbek tili xalqimiz uchun milliy o'zligimiz va mustaqil davlatimiz timsoli, bebaho ma'naviy boylik, buyuk qadriyatdir.

Shavkat MIRZIYOYEV

21-oktyabr kuni o'zbek tiliga Davlat tili maqomi berilganining 31 yilligini keng tantana qilamiz. Har bir davlat o'z tiliga, davlat ramzlariga, urf-odat, an'alariga ega. Ular shu jihatdan ham bir-biridan farq qiladi. Agar millatning tili yo'qolsa, shubhasiz, davlat ham yo'q bo'ladi. Shuning uchun ham til doimiy rivojlanishda bo'ladi. Unga yangi so'zlar kirib keladi, eskilari esa eskirgan so'zlar lug'atidan joy oladi. Shu tariqa tilimizda turli o'zgarishlar sodir bo'ladi va o'zbek tili ichki va tashqi manbalar asosida rivojlanib boradi.

So'nggi yillarda tilimizga e'ti-

bor nafaqat davlat darajasida, balki aholi orasida ham ortib bormoqda. Har bir O'zbekiston fuqarosi farzandlik burchi sifatida o'zbek tilini rivojlantirishga o'z hissasini qo'shishi lozim. Yoshlar qalbida o'zbek tiliga nisbatan hurmat va muhabbat uyg'otish, uni rivojlantirishda ayniqsa, ziyo tarqatuvchi muallimlarning hissasi katta. Yangi darsliklarga nazar salsak, o'zbek adabiyotida ko'plab o'zgarishlarni ko'rishimiz mumkin. O'zbek adiblarining ijodi yanada boyitilgan. O'quvchilar ham bu



asarlarni qiziqish bilan o'qib o'rganmoqdalar. Ona tili va adabiyot darslarida turli bahribaytlar tashkil etish, o'quvchilar bilan turli so'zlar zanjiri, so'z o'yinlari asosida mashqlar bajarish shogirdlarimizning o'zbek tiliga bo'lgan qiziqishi va hurmatini oshirmoqda. Ayniqsa, o'zbek tilining asoschisi Alisher Navoiy asarlarining izohli lug'atlar bilan yangi nusxada chop etilayotgani o'quvchilarning Navoiy asarlari ma'nosini anglab yetishlariga xizmat qilayotgani quvonarlidir.


Til bayrami munosabati bilan maktablarda tantanali tadbirlar, davra suhbatlari tashkil etilmoqda. Bu esa yosh avlod qalbida tilimizga bo'lgan mehrni, hurmat-ehtiromni kuchaytiradi. Zero, farzandlarimiz qalbida milliy g'ururni shakllantirish, yuksaltirishda barchamiz birday javobgarmiz.

**Go'zal G'AFUROVA,
Toshkent shahar, Olmazor
tumanidagi 219-umumta'lim
maktabining ona tili va adabiyot
fani o'qituvchisi**

(Davomi.
Boshi o'tgan sonda)

Ammo o'sha paytda xalq dushmani deya atalgan odamning qizini kim yolg'iz o'g'luga olib berardi. Qaysi yurak bilan? Normamat ancha vaqtgacha xotiniga ko'ngilsiz bo'lib yurdi, keyin bolalari ko'paydi. Ko'nikdi. Xotini ham buni yaxshi bilgan. Sabr qildi. Eh bolam-ey, oilani asrash oson ish deb o'ylaysanmi?

Hozir u Jo'raqishloqda turadi, kam ko'rishamiz. Ammo telefonda gaplashib turamiz.



Bahrom AKBAROV,
bolalar yozuvchisi

BIBIQJONNING JASORATI

– Normamat, sen ham gaplashib turasanmi? – deb so'radi. Normamat tog'a buvimga qaradi va bir qizardi-yu, o'zini eshitmaganga oldi.

– Normamat, sen ham telefon qilib turasanmi? – buvim gapini takrorladi.

– E... Ra'nobonu. O'tgan gaplarni qo'y. Yoshlikda bo'ladi-da.

Normamat tog'aning jahli chiqa boshlaganini sezgan dadam:

– Qani, Normamat tog'a, yuring, uyga kiramiz. Hali-zamon Matmusa tog'am ham kelib qoladilar.

– E... Matmusa keladimi? – dedi Normamat tog'a ko'ngli yorishib, – soat necha bo'ldi.

Dadam soatni aytgach, Normamat tog'a shoshib qoldi.

QUV KUYOV

– Qani, bo'laqolinglar tezroq, – deya bizni ham shoshira boshladi Normamat tog'a. – To'yga borishim kerakligi yodimdan ko'tarilibdi.

– To'yga?! Yana qanaqa to'y, to'y kimnikida? – so'radilar buvim.

– Solijon qizini uzatyapti-ku. Esingda yo'qmi? – dedi Normamat tog'a.

– Qaysi Solijon?

– Xolmat puchuqning qo'shnisi Solijon surnaychi-chi. Ko'zining oq-u qorasi, yakka-yu yagona qizi Norposhshani uzatyapti.

– Kimga?

– Men qayerdan bilay. Kuyov bo'lmish chustlik zo'r pichoqchi ekanligini eshitdim.

– Qayerdan topa qolibdi uni.

– E... qayerdan bo'lardi, bozordan-da, bozordan.

– Hm... Rostdan ham Chust pichog'ini sotarkanmi?

– Ha, rostdan. Solijon surnaychi uncha-munchaga ishonmaydi. Buni yaxshi bilaman. Ammo kuyov bo'lmish ancha quv ekan. Terib qo'ygan pichoqlari orasidan birini olibdi-yu, havoni shunday sermagan ekan, havoning bir bo'lagi tap etib, Solijon surnaychining oyog'i ostiga tushibdi.

– Yo, baparmoni xudo. Rostdanmi?

– Aldab o'libmanmi, Ra'nobonu. Eshitganimni aytyapman.

– O'sha yoqlarda qiz qurib ketgan ekanmi u yigitga. Namuncha To'raqishloqdan uylanmasa?!

– E... sen ham qiziqsanda. Taqdir bo'lgandan keyin shu-da. Ustiga-ustak bo'lajak kuyovning ham xurmozori bor emish.

– Ha... Gap buyoqda ekan-da. Esimga tushdi. Soli surnaychining ham ikki gektar xurmozori bor-ku.

Bu gapdan keyin Normamat tog'a biroz o'ylanib qoldi va peshonasiga bir urdi-da:

– Shu xayolimga kelmaganini qara, – dedi kuyinib.

BIBIQJONNING MUHABBATI

Lattaqopdan tovuqlarni olib, peshayvonimiz oldiga ekilgan xurmo daraxti tagiga qo'ya boshladim.

– Haqiqatan ham zotdor va chiroyli tovuqlar ekan, – dedilar oyim tovuqlarni ko'rib.

– Ha, dugonam yomon tovuqlar berarmidi? – dedilar buvim g'ururlanib.

Lattaqopning eng tagidan xo'rozni oldim.

– Mana buni xo'roz desa bo'ladi, – dedilar buvim boyagi ohangda.

– Xo'rozmisan, xo'roz ekan, – dedi Matrayim quvonch bilan. – Endi Rustam afg'onning o'g'li Bahodir maqtanchoqdan qo'rqmasang ham bo'laveradi. Qani, yana bir marta xo'rozi bilan maqtansin-chi!

– Urishtiramizmi? – dedi Tamtumbo IV qiziqsinib.

– Urishtirsak urishtiraveramiz, – dedi Matrayim g'ururlanib.

– Xo'roz urishtirishga balo bormi? Senlarda insof bormi? – dedilar buvim jahl bilan. – O'zi endi keldi-ku, bu jonivor.

– Biz ham shu bugun demayapmiz, buvijon. Bahodir maqtangan kuni urishtiramiz, – dedi Matrayim hozirjavoblik bilan. – Axir o'zingiz maqtanchoqlarni yomon ko'rasiz-ku!

(Davomi bor)

JAZO

(Hikoya)



Xurshid velosipedini minib, kutubxonaga keta-yotgan edi. O'qigan kitobini qo'yniga solib qo'ygan, unda tasvirlangan voqealarni ko'z oldiga keltirib, xotirjam tortardi. Mabodo kutubxonachi Donoxon aya o'z odaticha kitobni o'qigan yoki o'qimaganini aniqlash uchun savol-javob qilsa, hammasi yodida turibdi, burro-burro so'zlab bera oladi.

Xurshid velosipedini kutubxona yaqinidagi qari qayrag'ochga suwab qo'yib, kutubxonaga kirib ketdi. Ichkarida kitob topshirishga kelgan yana ikkita bola bor ekan. Xurshid qo'ynidan kitobini chiqarib, kuta boshladi. Beixtiyor topshirmoqchi bo'lgan kitobini varaqlay boshladi. Rangli suratlar bilan bezatilgan bu kitob unga juda ham qadrdon bo'lib qolgan, shu topda undan sira ajralgisi kelmayotgan edi. Nogoh bu kitobning o'ziniki bo'lib qolishini istab qoldi. Avvaliga xayoliga kelgan bu fikrdan cho'chib ketdi. Beixtiyor institutda ishlaydigan akasining «Kitob o'g'irlash o'g'irlik emas!» degan gapini esladi. Shunda fikri yanada qat'iylashdi. Qo'lidagi kitobni yana qayta qo'yniga soldi. Atrofga hadiksirab alangladi. Kutubxonachi ichkarida javonlar yonida qandaydir kitobni qidirish bilan band edi.

Xurshid, fursatni g'animat bilib, qo'ynidagi kitobni bag'riga mahkamroq bosgancha o'zini tashqariga urdi. Xuddi orqasidan birov ta'qib etayotgandek yuragi gursillab ura boshladi. Tezroq bu yerdan uzoqlashish lozimligini angladi. Velosipedi suwab qo'yilgan qayrag'och sari jadal intildi. Ajabo, velosipedi qo'yilgan joyida yo'q edi. Qayta-qayta qaradi. Hech qayerda velosipedi ko'rinmadi. Go'yo kimdir uning niyatini payqab qolgan-u velosipedni gumdon qilgandek edi. Xurshid xunob bo'lib, qayrag'ochni ko'p marta aylanib chiqdi. Qiziq, boyagina turgan matochi yo'q bo'ldi-qoldi. Agar birontasi vaqtincha birrovga deb minib ketgan bo'lsa, qaytib kelar degan umidda betoqat bo'lib kuta boshladi. Qo'ynidagi kitobga endi boshqacha nazar bilan qaray boshladi. Ajabo, endi u kitob kimniki? O'g'irlamoqchi edi, iloji bo'lmadi. Balki velosipedning o'g'irlangani unga yuborilgan jazodir. Endi nima qilsin? Darvoqe, qayta kirib kitobni topshirishi ham mumkin-ku! Shunday qilgani ma'qulroq. Ammo hovliqayotgani, yuragining bejo urayotgani sirini fosh qilib qo'yishi mumkin-ku!

Oqshom cho'kayotgan, qorong'ilik quyuqlasha boshlagan edi. Shu mahal ichkaridan kutubxonachi chiqib qoldi. U Xurshidni ko'rib, hayron bo'ldi.

– Xurshid! O'zingmisan? Boyagina ichkarida ko'ruvdim-ku seni. Kitob topshirmoqchimiding?

– Hmm, – dedi Xurshid noiloj qo'ynidagi kitobini chiqarib.

– Bugun kech bo'ldi, – dedi kutubxonachi qo'l soatiga qarab. – Bolalarimni bog'chasidan olishim kerak. Agar vaqting bo'lsa, ertaga kela qol. Yangi kitoblar kelgan, senga eng zo'rini tanlab qo'yaman. Demak, kelishdik. Ertaga kelasana?

– Xo'p, – dedi Xurshid zaif, qaltiroq tovushda.

Xurshid garchi velosipedi o'g'irlanganidan qanchalar achinmasin, qilko'prikan arang o'tib olganday yengil tortib, uyiga yayov jo'nadi.

Shodmon OTABEK,

O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi

QIZIQARLI MA'LUMOTLAR

1. Avstraliya dunyodagi eng ko'p sudralib yuruvchilarga ega (750 dan ortiq turlari bor) mamlakat.

2. Avokado aslida meva emas, sabzavot.

3. Kosmosga parvoz etish uchun atigi bir soat vaqt ketadi.

4. Cho'chqalar osmonga qaray olmaydi, bu jismonan imkonsizdir.

5. Akula ikki ko'zi bilan miltillaydigan yagona baliq.

6. Voyaga yetgan odam tanasining taxminan 70% suvdur.

7. Sizning burun va quloqlaringiz butun umr davomida o'sishda davom etadi.

8. Itning burni odamning barmoq iziga o'xshaydi.

KOSMOSGA PARVOZ ETISH UCHUN NECHA SOAT VAQT KETADI?



9. Inson o'z tirsagini tishlay olmaydi.

10. Yer sharining 70 foizi suv bilan qoplangan.

11. To'rtinchi raqam – bir xil miqdordagi harflarga ega bo'lgan yagona raqam.

12. Siz bir vaqtning o'zida ham gaplashib, ham nafas ololmaysiz.

13. Faqat erkak qurbaqalar sayray olarkan.

14. Inson ulg'ayganda 32 ta tishga ega bo'ladi.

Internet manbalari asosida Husan TURSUNOV tayyorladi

BO'SH O'TIRMA, BOSH QOTIR!


«B» HARFLI TOPQIRLIK MASHQLARI KROSSVORD

Eniga: 5. Ip va ipakdan to'qilgan, yo'l-yo'i gazlama. 6. Qomusiy alloma, birinchi globus ixtirochisi. 7. Qarsak bilan ijro etiladigan erkaklar davra o'yin-qo'shig'i. 10. Temuriyoda hukmdor, mumtoz shoir. 11. Shiddatli shamol. 14. Suv jonivori. 15. So'zning bir nafas bilan aytiladigan bo'lagi. 18. Ziynat buyumi. 19. Dovyurak, qo'rqmas inson. 20. O'zbekiston janubidagi tog'.

Bo'yiga: 1. Toshkent viloyatidagi shahar. 2. Musiqali sahna asari. 3. Transport vositasining to'xtab o'tish joyi. 4. Qishki sport o'yini turi. 8. Islom olamining buyuk muhaddisi. 9. Binafsha yoki havorang gulli bir yillik begona o't. 12. Hindiston-dagi shaharga nomdosh gazlama. 13. Quruvchi usta. 16. Maqoldan: «... – oltindan qimmat». 17. Yer ostidan otilib chiquvchi suv manbai.

«B-B» TOPSHIRIQ. Shaklning o'rta qismidagi raqamlar juftini (birinchisi so'z, ikkinchisi harfni anglatadi) krossvord javoblaridagi harflar bilan almashtirish orqali topshiriqni hal eting. Bunda ulardan shifobaxsh giyoh, eng ulkan daraxt va saranjom-sarishta ta'rifidagi so'zlar ayon bo'ladi.

Tuzuvchi: Foziljon ORIPOV



BILASIZMI?..

Ingliz tili dunyodagi eng boy til sanaladi. Bu tilda 250 000 dan ortiq so'z mavjud. Dunyo bo'yicha eng ko'p so'zlashiladigan til esa ispan tilidir.

Hozirga qadar insoniyat tomonidan 200 dan ortiq sun'iy tillar yaratilgan. Bu tillardan asosan dasturlash va boshqa sohalarida keng foydalaniladi.

Gavayada birgina yomg'ir so'zining 200 dan ortiq alternativ variantlari mavjud.

Xitoy tilida so'zlovchi odamlarda miya yarimsharlarining har ikkisi ishlaydi. Boshqa tilda so'zlovchilarda esa faqat chap yarimsharigina ishlaydi.

Yer sharidan tashqarida, ya'ni fazoda ishlatilgan ilk til rus tili bo'lgan.

Til o'rganish faqatgina xotirani kuchaytiribgina qolmay, balki qarish jarayonini ham sekinlashtiradi.

Ispan tilida 4000 dan ortiq arab tilidan olingan so'zlar mavjud.

Faqat Londonning o'zidagina aholi 300 dan ortiq tilda so'zlashadilar.

HIKMATLI SO'ZLAR

Odam tili bilan boshqa hayvonlardan imtiyozlidir. Uning tili orqali boshqa odamlardan afzalligi bilinadi. Til shuncha sharafi bilan nutqning qurolidir. Agar nutq noma'qul bo'lib chiqsa tilning ofatidir.

Alisher NAVOIY



Tilingdan chiqqan sadaqa (ya'ni pand-u nasihating va mav'iza-yu hasanang) ba'zan qo'lingdan (mol-dunyongdan) chiqqan sadaqangdan ko'ra xayrliroqdir.

Agar tilingning ortiqcha so'zlashiga ega bo'la olmasang, unda tizgining jilovini shaytonga topshirgan bo'lasan.

Ko'pincha til bilan yetkazilgan jarohat qilich bilan yetkazilgan jarohatdan og'irroqdir.

Abulqosim ZAMAXSHARIY

Har til ko'ngilning pardasidir. Parda qimirladimi, sirlar ochiladi.

Tiliga hokim bo'lmagan insondan – do'st, ko'ziga hokim bo'lmagan insondan – yor bo'lmas.

Dili va tili bir bo'lmagan inson yuz tilni bilsa ham tilsiz sanalgay.

Tilingdan oldin qalbingni tarbiya qil. Chunki so'z qalbdan kelib, tildan chiqadi.

Jaloliddin RUMIY

Husan TURSUNOV tayyorladi

RANGLAR JILOSÍ



Poytaxtimizning Olmazor tumanidagi «Qizg'aldoq g'unchalari» 569-MTTning «Quyuncha» nomli 2-tayyorlov guruhi tarbiyalanuvchisi Roziya Abduvahobovaning 21-oktyabr – O'zbek tiliga Davlat tili maqomi berilgan kun munosabati bilan «Ona tilim – jon-u dilim» mavzusidagi onlayn mashg'ulot jarayonidan fotolavha.



Dilnura XALBAYEVA, Toshkent shahar, Uchtepa tumanidagi 283-umumta'lim maktabining 9-sinf o'quvchisi



Farzona ERKINOVA, Toshkent shahar, Uchtepa tumanidagi 283-umumta'lim maktabining 6-sinf o'quvchisi



BIZNING TELEGRAM RAQAMIMIZ: (94) 645-90-70



Muassis:

O'zbekiston Respublikasi
Xalq ta'limi vazirligi

Bosh muharrir
Feruza ADILOVA

Gazeta O'zbekiston Respublikasi Prezidenti administratsiyasi huzuridagi axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 0208-raqam bilan 2019-yil 10-iyunda ro'yxatdan o'tgan.

TAHRIR HAY'ATI:

Dilshod KENJAYEV,
Alisher SA'DULLAYEV,
Murtazo SULTONOV,
Feruza JALILOVA,
Ashurali JO'RAYEV,
Feruz MATYOQUBOV
(mas'ul kotib)

Navbatchi muharrir
Muhammadsharif
FAYZULLAYEV

Rassom

Feruzbek
KAMOL o'g'li
Sahifalovchi-dizayner
Shaxobiddin
MAXMADIYEV

«O'zbekiston» NMIU bosmaxonasida chop etildi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga bosmaxona mas'ul.
Manzili: Toshkent shahri, Navoiy ko'chasi, 30-uy. Indeks: 100011.
Obuna indeksi: 198.
www.tongyulduzi.uz
e-mail: tongyulduzi1929@umail.uz
telegram: t.me/tongyulduz
Adadi – 1677
Buyurtma – V 4369

Tahririyatga kelgan barcha qo'lyozmalar tahrir qilinadi, mualliflarga qaytarilmaydi. Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Shakli A-3, 2 bosma taboq.
Bahosi kelishilgan narxda.
Gazeta haftaning dushanba kuni chop etiladi.
Topshirish vaqti – 18:00
Topshirildi – 18:00
Tel. /faks: (99871) 244-63-08